

O‘zXIA, Islomshunoslik va Islom sivilizasiyasini o‘rganish ICESCO kafedrasi dotsenti v.b., t.f.PhD, taqrizi ostida No‘monjon To‘rayev taqrizi ostida

<sup>1</sup> Sodiqov Jo`rabek Sobirovich  
O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi  
“Islomshunoslik va islam sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO” kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD  
[jurabeksodiq@gmail.com](mailto:jurabeksodiq@gmail.com)  
<sup>2</sup> Boboyorov Javoxir Jasurovich  
O‘zbekiston xalqaro islam akademiyasi  
Islomshunoslik yo‘nalishi  
2-kurs talabasi  
Aloqa uchun: +99897 6800860  
[javoxirboboyorovjasurovich@gmail.com](mailto:javoxirboboyorovjasurovich@gmail.com)

## AZONNING JORIY ETILISHDAGI XIKMATLAR

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada azonning barokati, fazilati va unga bog’liq bo’lgan mo`jizalar haqida so`z boradi. Hadislarda namozga aytilgan azonning fazli va uning ta’siri qanchalik kuchli ekani aytilgan . Hatto , uni eshitgan shayton qo’rqib , orqasiga qaramay tezda qochishi bayon qilingan . Agar muazzin qanchalik baland ovozda azon aytib, qancha uzoqqa yetkazishga harakat qilsa, shaytonni shuncha uzoqqa haydagan bo’ladi. Azon aytilgan va namoz o’qilgan joylarda ko’pdan-ko’p fayzlar va barokatlar kelishi aniq.

**Kalit so’zlar:** oyat, hadis, sunnat, barokat, fazilat, mo`jiza.

## ИЗРЕЧЕНИЯ ПРИ ВВЕДЕНИИ АЗАНА

**Аннотация:** В этой статье рассказывается о барокко азана, его добродетели и связанных с ним чудесах. В хадисах говорится о фазле азана, сказанного в молитве, и о том, насколько сильны его эффекты . Даже было сказано , что дьявол, услышав это, испугался и быстро убежал, несмотря на спину . Чем громче муэдзин произносит азан и чем дальше он пытается донести, тем дальше он прогоняет дьявола. В местах, где произносится азан и совершается намаз, обязательно придет много-много благ и барок.

**Ключевые слова:** аят, хадис, Сунна, барокат, добродетель, чудо.

## SAYINGS IN THE CURRENT EDITION OF THE AZAAN

**Annotation:** this article deals with the baroque, Virtue, and associated miracles of azon. The hadiths state the grace of the prayer and how powerful its effect is . It is even stated that the devil , who heard him, was frightened and quickly fled despite his back . The louder muazzin tries to exclaim and deliver the cry, the farther he has driven the devil. It is clear that in the places where the prayer is recited and the prayer is recited, many blessings and blessings will come.

**Keywords:** verse, Hadith, circumcision, baroque, virtue, miracle.

Azon islom tarixida namozning boshlanishini xabar qilish uchun hijratning birinchi yilda joriy etilgan amaldir. Azon borasida Qur’oni karim oyatlari va Payg’ambar Muhammad salollohu alayhi vassallam hadislari mavjud bo’lib, jumladan, Qur’oni Karimda “Ey iymon keltirganlar! Juma kuni namozga nido qilinganda, Allohnning zikriga shoshiling” (Juma surasi: 9-oyat) hamda Payg’ambar Muhammad salollohu alayhi vassallam “Azonni eshitganingizda unga javob qaytaringlar”, degan hadislari bunga misol bo’ladi.

Azon dil va vujuddan shaytonni quvish imkoniyatidir. Azon orqali Allohnning sig‘inish va ibodat qilishga sazovor yagona Zot ekani, Muhammad alayhissalomning butun insoniyatga yuborilgan oxirgi haq payg’ambarliklari, Islom dinini va uning amirlari to qiyomatgacha butun insoniyat uchun dasturulamal ekani ta’kidlanadi.

Azon ilohiy chaqiriqdir . Azon olamlar Robbi tomon , me’roj sari , najot sari chorlovdir. Azon imon ahli qalbiga g’urur , ruhiga surur baxsh etadi.

Azon bu Allohga qurbat hosil qilishni yo’llaridan biri bo’lib uning vositasida Allohnning muhabbatি topiladi.

“Azon” so’zi arab tilida “chaqirmoq” “undamoq” “bildirmoq” degan ma’noni anglatadi. Islom shariatida esa farz namozining vaqtini maxsus chorlov bilan bildirishga “azon” deyiladi. U Payg’ambar Muhammad salollohu alayhi vassallam Qur’on oyatlari vositasida joriy etilgan sunnatlidandir. Uning fazilatlariga kelsak , bu borada payg’ambar Muhammad salollohu alayhi vassallam hadisi shariflarida keladiki , aytadilar:

“Qachon namozga azon aytilsa , shayton azonni eshitmaslik uchun orqasidan yel chiqarib , ortga qochadi. Qachon iqomat aytilsa , yana ortga ketadi . Iqomat aytib bo’linsa , odamning diliga vasvasa solish uchun qaytib keladi . Oldin eslamay yurgan narsalarini aytib, uni esla, buni esla deydi. Hattoki u qancha namoz o’qiganini ham bilmay qoladi”.

*Bu hadis-u sharif shuni anglatadiki qachon azon aytilganda shayton azon eshitiladigan joydan , eshitilmaydigan joyga qochadi ya’ni azon aytilgan vagtda shayton insonni tug‘yonga sola olmaydi. Bu esa azon va iqomat aytilgan joyda shayton bo’lmaydi deganidir. Iqomat aytilganda yana qochadi. Iqomatni aytib bo’lgandan so’ng yana keladi. Ya’ni shaytonni Allohnin kalomlaridan bo’lgan azon va iqomat azobga solib uni qochishga majbur qiladi. Shaytonning qaytib kelishidan murod, u insonni Allohga qilinadigan ibodatdan va yaxshi amallardan to’sishdir. Shu jumladan aytish lozimki, shayton inson uchun ochiq dushmandir. Allah taolo shaytonni insonga ochiq dushmanligi haqida Qur’oni karimda bayon qilgan:*

Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rasululloh salollohu alayhi vassallamning:” Namozga azon aytilsa (ya’ni azon sadosi eshitilsa) shayton qochadi, hatto Raxvo degan joygacha qochib ketadi”deganlarini eshitdim.”

*Hadislarda namozga aytilgan azonning fazli va uning ta’siri qanchalik kuchli ekani aytilgan. Hatto, uni eshitgan shayton qo’rgib, orgasiga qaramay tezda qochishi bayon qilingan. Agar*

*muazzin qanchalik baland ovozda azon aytib, qancha uzoqqa yetkazishga harakat qilsa, shaytonni shuncha uzoqqa haydagan bo'ladi. Azon aytilgan va namoz o'qilgan joylarda ko'pdan-ko'p fayzlar va barokatlar kelishi aniq.*

*"Rahvo" Madinai munavvaradan o'ttiz – qirq mil uzoqlikda joylashgan joyning nomidir. Ushbu hadisda azon va iqomat Alloh taologa hamma narsadan ko'ra mahbub ekanligi bayon qilinmoqda.*

Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rosululloh salollohu alayhi vassallam: “Vaqtiki, biror qishloqda azon aytilda, Alloh Taolo o'sha kuni shu qishloqni o'zining azobidan maxfuz va omonda qiladi “dedilar”.

*Demak, shuni tushunish mumkinki azonning barokati mislsiz va tengsizdir. Qaysidir qishloq yoki biror bir joyda azon aytilda u yerdan Allohnинг azobi ko'tariladi va Alloning rahmati hamda barokati yog'iladi.*

Abdulloh ibn Abdurrahmon ibn Abu Sosoa roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“U kishiga Abu Saiyd al-Xudriy roziyallohu anhu: “Men sening qo'yni va cho'lni yaxshi ko'rishingni bilmoqdaman. Qachonki qo'ying orasida yoki cho'lingda bo'lsangu, namozga azon aytadigan bo'lsang, ovozingni baland ko'tar. Chunki qaysi bir jin, ins yoki biror narsa muazzinning ovozini eshitsa, albatta, qiyomat kuni unga guvohlik beradi. Buni Nabiy salollohu alayhi vassallamdan eshitganman”, degan ekan”

*Ushbu hadisda azonning qay darajada ulug' amallardan biriligi haqida so'z bormoqda. Aytimoqdaki, ovozingni baland ko'tar zero insonlar yoki jinlardan birortasi eshitsalar Oiyomatda senga azon aytganliginga guvohlik beradi. Ya'ni Oiyomatda azon aytgan insonning darajasi baland va ulug' bo'lishi aytilmogda.*

Muoviya roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

Nabiy salollohu alayhi vassallam: “Muazzinning bo'yni qiyomat kuni bo'yni eng uzun odamlardan bo'lur”, dedilar.

*Bu hadisda muazzinlarning boshlari oxiratda baland bo'lishi zikr qilinmoqda. Ular hammaning ichida o'z fazllari bilan ajralib turar ekanlar. Muazzinlar Oiyomat kuni ko'shordan bo'lган baland maqomlarga qo'yiladi. Shu sababli, ularning boshlari boshqalarnikidan baland turadi.*

*Yana bir qiziq ma'lumot:*

Imom Bazzor qilgan rivoyatda azon Muhammad alayissalomga Isro kechasida ko'rsatilgani va uni yetti osmonning ustidan eshitganlari haqida so'z ketadi.

Bu rivoyatlardagi hodisalardan ming to‘rt yuz yil o‘tib , Oyga qadam bosgan

amerikalik fazogir ham oyda turib azonni eshitdi. Bu ovozni ovoz yozish asboblari yozib oldi. Yillar o’tib fazogir Misrga kelib, azonni eshitganida, ko’pchilik ishtirok etayotgan yig’ilishda “Bu ovozni Oyda eshitgan edim“deb tan oldi.

*Bu ma’lumot azonning ulug` amalligi va Allohga suyukli amal ekanini isbotlaydi.*

*Allohga suyukli ekanki, uning mislsiz ovozi Yer kurrasidan chiqib boshqa koinotlarga taralmoqda . Bu ham Allohnинг mo’jizalaridan biridir.*

*Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:*

“Rasululloh sallallohu alayhi vassallam: “agar odamlar azon aytishda va birinchi safda nima (qanday savob) borligini bilganlarida edi,(bunga erishish uchun) qur’a tashlashdan boshqa chora topa olishmas va albatta, qur’a tashlagan bo‘lishar edi”, dedilar. (Muttafaqun alayh.)

*Azon aytishda katta savoblar bordir. Azon aytish shunchalik ulug` ish ekanki bu ishni Rasululloh sallallohu alayhi vassallam, qur'a tashlash bilan kelishgan bo'lar edilar deganlar. Bu amal Allohnинг buyukligini va undan o'zga iloh yo'qligini shu bilan birga Muhammad sallallohu alayhi vassallam uning elchisi ya'ni rasuli ekanligini insonlarga yetkazadigan , Islom aqidasini o'z ichiga jam qilgan amallardandir. Shu bois, Rasululloh sallallohu alayhi vassallam uning savobi ulkanligini ta'riflaganlar.*

*Darhaqiqat, yaxshilarning nomai a'mollari, shak-shubhasiz, illiyundadir. (Ey Muhammad), siz illiyun nima ekanini qayerdan ham bilursiz? (U)bitilgan kitobdirki, Unga\_(Allohnинг) yaqin (farishta) lari guvoh bo'lurlar.*

Shak –shubhasiz, yaxshilar (*ya'ni mo'minlar Jannat*) ne'matlaridadir. Ular so‘rilarda (*Alloh taolo o'zlariga ato etgan ne'matlarga* ) boqib (*o'tirurlar*). Siz ularning yuzlarida ne'matlarning jilvasini tanirsiz—ko'rursiz. Ular (*jannatda*) muxrlangan maydan sug‘orilurlarki, u (*may*) ning muxri mushk bo'lur. Bas, bahslashguvchi kishilar (*mana shunday mangu ne'matga yetish yo'lida*) bahslashsinlar. (*Mutofifun surasi:18-26- oyatlar*)

Bu oyati karimadan murod jannatga yetishish yo'lida yaxshi amallarda musobaqa qilishdir. Yuqorida azonning bir qancha fazilat va barokatlari hadislarda keltirildi. Shundan tushunish mumkinki azon aytish - musobaqa qilishga munosib yaxshi amallardan hisoblanadi. Ya'ni, azon borasida musobaqa qilish, jannatga kirishga musobaqa qilish demakdir. Shu bilan birga qur'a tashlab azon aytish chiroyli va maqtalgan ishlardandir. Azon Allohga maqbul va suyukli amallardan bo‘lib payg‘ambarimizning muborak sunnati hisoblanadi.

“Yetti osmon, Yer va ulardagi bor jonzot (*Allohnи*) poklar. Mayjud bo‘lgan barcha narsa hamdu sano aytish bilan U zotni poklar. Lekin sizlar (*ey insonlar*), ularning tasbeh aytishlarini-poklashlarini anglamas sizlar. Dar haqiqat, U halim va mag‘firatli zotdir.” [*Isro surasi, 44-oyat*]

Muazzin azon aytib, Alloh taoloning ulug'ligi, buyukligi, tavhid va risolatini e'lon qilsa , inson va jinlardan boshqa hamma narsa uni eshitadi va tushunadi. Qiyomat kunida hamma narsa muazzinning azon aytgani haqida guvohlik beradi. Bu shubhasiz, muazzin uchun juda katta fazilatdir.

Xulosa qilib aytganda, azon yomonliklarni aritadi , baraka keltiradi, dardlarga shifo bo'ladi. Azonning fazilatlari va sir-sinoatlari tuganmas. Alloh taolo borliqni qanday puxta, o'zaro mutanosib, sir-sinoatlarga boy qilib yaratgan bo'lsa, bu borliqda inson zoti yashashi uchun nozil qilgan dinini , uning bosh manbaasi bo'lmish Quroni karimni bunchalik mukammal etgan bo'lsa o'z dinining shiori hisoblanmish – azonni ham shunchalik go'zal va sermazmun qilgan.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Kifoya" kitobi, 3-juz, Toshkent shahrida "Hilol-nashr" nashriyotida , 2014, 2017, 2018, 2019, 2020, 2021, 2022, 2023-yillarda nashr qilingan.

1-juz 579 bet, 2-juz 578 bet, 3-juz 634 bet.

2. Yorqinjon Fozil "Azon odoblari va axkomlari" kitobi, Toshkent shahrida "Hilol nashr" nashriyotida 2022- yilda nashr qilingan. 1-juz, 173 bet.

3. Oyatulloh Ayniddin " Azon aytish qoidalari" kitobi, Termiz shahrida "Kitob nashr" nashriyotida 2022- yida nashr qilingan. 1 juz, 101 bet.

4. Shayx Alouddin Mansur "Qur'oni karim ma'nolari tarjimasi" kitobi, "Munir" nashriyoti , Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 44-uyda 2021-yiln nashr qilingan.

5. Muhammad ibn Abdulloh Xatib Tabriziy "Mishkotul masobih" kitobi , 29 bob , 5945 ta hadisni o'z ichiga oladi, Dot ibn Hazn nashriyotida nashr qilingan.

6. Imom Bxoriy "Sahihi Buxoriy" (aljome assahih) kitobi 4 jild, 7275 hadis, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti tomonidan 1997 yili nashr qilingan.